

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYDAROVA MAHLIYO MAMATOVNA

**TALABALARNING TIBBIY MADANIYATINI
BIOENERGETIK BILIMLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH
(TIBBIYOT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xaydarova Maxliyo Mamatovna

Talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida
rivojlantirish.....3

Хайдарова Махлиё Маматовна

Развитие медицинской культуры студентов на основе
биоэнергетических знаний.....17

Khaidarova Makhlie Mamatovna

Development of student medical culture on the basis of bioenergetic
knowledge.....33

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....37

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYDAROVA MAHLIYO MAMATOVNA

**TALABALARNING TIBBIY MADANIYATINI
BIOENERGETIK BILIMLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH
(TIBBIYOT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3053-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdazizov Azizjon Abdusabirovich
pedagogika fanlari бўйича фалсафа doktori
(PhD), доцент

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Turakulov Uktamjon Nurmamatovich
tibbiyot fanlari doktor (DSs), dossent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01-raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100085, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel. (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100085, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “__” _____ da tarqatildi.
(2025 yil “__” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tibbiyot ta'lim tashkilotlarida tibbiy madaniyatini va kasbiy kompetensiyalarini bioenergetik bilim va ko'nikmalar asosida rivojlantirishga terapevtik ta'sir ko'rsatuvchi modellari uzluksiz ta'lim amaliyotga tadbiq etilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015 yilda ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining tibbiy madaniyati va ruhiyatiga oid bioenergetik bilimlar sintezi, sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatini uyg'unligini ta'minlash bo'yicha yirik ilmiy loyihalarni amaliyotga tadbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida talabalarning tibbiy madaniyati, kasbiy fikrlashi va refleksiyaning shakllantirish, bioenergetik bilimlarning kasbiy faoliyatiga ta'siri – biologiya bioenergetika va biofizika fanlarida tibbiy madaniyatini rivojlantirishning imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiy xissiyotlar va fikrlash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Germaniya, Rossiya, Fransiya, Janubiy Koreya, AQSh va Yaponiyada tibbiy oliy ta'lim tashkilotlarida, ruhiyatga oid biologiya bioenergetik bilimlar asosida tibbiy madaniyatining biologik jihatlarini yoritish talabalar ongi xissiyotlarini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid qator islohotlar yurtimiz kelajagi uchun mas'uliyatli, yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy madaniyatli yoshlarni tarbiyalashning huquqiy-meyoriy asoslar yaratilmoqda. Har bir farzand – millat kelajagi. Bolalarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, barkamol avlodni tarbiyalash, ularning baxtu-saodati, farovon kelajagini ko'rish esa, barchamizning ezgu-orzuimiz hisoblanadi degan edilar Sh.Mirziyoyev. Natijada, talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 2018-yil 7 - dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillatirish buyicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-3775-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son, 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son "Tibbiyot sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talabalarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlari B.S.Abdullayeva, A.Azizxo‘jayev, M.L.Aripova, A.R.Aripdjanova, U.Sh.Begimkulov, H.Boboyev, N.N.Djamilova, R.X.Djurayev, Z.Islomov, R.G.Isynov, M.Inomova, N.U.Mahkamov, G.I.Maxmutova, O.Musurmonova, S.Nishonova, X.Odilqoriyev, D.Ro‘ziyeva, U.K.Tolipov, M.Quronovlar tomonidan tibbiy madaniyatni rivojlantirish tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlarida L.I.Amanbaeva, V.V.Anisimova, N.K.Anoxina, D.B.Bogoyavlenskaya, M.I.Borovskiy, S.V.Boshno, P.P.Garyayev, E.I.Grigoreva, A.N.Dunayeva, K.P.Ivanov, L.M.Ilyazova, V.P.Kaznacheyev, M.V.Kapitonova, A.V.Malko, A.Maslou, A.V.Mologin, YE.V.Muxina, S.Pechurkin, V.M.Rozin, L.I.Ruvinskiy, S.A.Sisoyeva, V.P.Skulachyov, V.Y.Taturlar bioenergetik xususiyatlarni o‘rganish hamda tibbiy madaniyat bilan inson salomatligi o‘rtasidagi muayyan bog‘liqliklarning mavjudligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Yevropa mamlakatlarida T.Frankel, A.Watson, J.Husa, M.T.Cardador, A.Kroeber, Dj.Dyui, A.Maslou, I.E.Untlar talabalarning tibbiy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy).

Tadqiqotning maqsadi talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning umumiy tibbiy madaniyatini, hayot darajasini muhim tarkibiy qismi sifatida yoshlarda rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning tibbiy faoliyat etikasi normalari va tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan modelini takomillashtirish;

talabalarning bemorlar bilan muloqot qilish va aloqa o‘rnatish qobiliyatini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish;

turli madaniyatlar va ijtimoiy guruhlarda, madaniy farqlarni hisobga olish samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinovda Toshkent davlat

tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Urgench davlat tibbiyot universitetining 350 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik-psixologik, tibbiy adabiyotlar, oliy ta'lim tashkilotlari o'quv va ta'lim dasturlarini tahlil qilish; pedagogik kuzatuv, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish; ommaviy material to'plash (o'qituvchilar, talabalar bilan so'rovnoma, test o'tkazish), modellashtirish, nazariy tahlil va sintez, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni miqdor va sifat jihatidan tahlil qilish, statistik qayta ishlash, qiyosiy tahlil, analitik sharhlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tashqi va ichki o'zgaruvchan xulqni pedagogik sharoitlarning motivatsion-kognitiv, faoliyatli-ijodiy va hissiy-barqaror komponentlariga integratsiyalash hamda obektiv va sub'ektiv ta'sir darajasining ruhiy uyg'unligiga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayoni ta'limni insonparvarlashtirish, subekt-subekt munosabatlarini pedagogik o'zaro manfaatli hamkorlik obektiv va sub'ektiv omillariga sinxron moslashtirish hamda tibbiy madaniyatning biologik jihatlarini bosqichma-bosqich ta'limiy maqsadlarga intensiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish modeli irsiy xususiyatlar, tibbiy his tuyg'ularni rivojlantirish motivlari, bioenergetik bilimlarni yaxlitligi, variantivligi, dinamizmligi va ochiqligini integrativ moslashtirish hamda shaxsda moslashuvchanlik, faol yaratuvchanlik hissiyotlarini subekt-subekt munosabatlarining qayta aloqaga qirishish motivlariga proporsional bog'liqligini isbotlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish samaradorligi hissiyotlarni boshqarishga axloqiy qarashlar, hayotni voqeylikda bioenergetik bilimlardan foydalanish hamda fikrlash ketma-ketligini kriterial tashxis o'tkazish va diagnostik imkoniyatlariga intensiv transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiyot sohasidagi kasbiy bilim va ko'nikmalar faoliyat etikasi tamoyillari asosida kengaytirilgan;

tibbiyot talabalariga gigiyena asoslari, energetik diagnostikasi va terapiyasini tadqiq usullarining pedagogik imkoniyatlari aniqlangan;

tashxislashning bioenergetik bilimlarga asoslangan tibbiy madaniyatni shakllantirishning o'quv kurslari, amaliy mashg'ulotlari mazmunan takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi variativ yondashuv, rasmiy manbalardan olingan metod va nazariy materiallar, samarali tadqiqot metodikalarining qo'llangani, tadqiqotning metodologik bazasi, matematik statistikaning zamonaviy metodlari validligi va ishonchliligi, tadqiqot natijalari va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar yordamida isbotlangani, xulosa, taklif

va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya tadqiqoti muammosiga oid adabiyotlarni nazariy tahlil yo'li bilan olingan materiallar tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonida qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli, ishlab chiqilgan metodikalar, shuningdek, ekspert baholash uchun so'rovnomadan oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarni tashkil qilish va o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish va rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni takomillashtirish, tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tashqi va ichki o'zgaruvchan xulqni pedagogik sharoitlarning motivatsion-kognitiv, faoliyatli-ijodiy va hissiy-barqaror komponentlariga integratsiyalash hamda obektiv va sub'ektiv ta'sir darajasining ruhiy uyg'unligiga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar PZ-20170923121-raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 1- dekabrda 02-07-3846/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning tibbiy madaniyati rivojlantirilgan;

talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayoni ta'limni insonparvarlashtirish, subekt-subekt munosabatlarini pedagogik o'zaro manfaatli hamkorlik obektiv va sub'ektiv omillariga sinxron moslashtirish hamda tibbiy madaniyatning biologik jihatlarini bosqichma-bosqich ta'limiy maqsadlarga intensiv moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-20170923121-raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 1- dekabrda 02-07-3846/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik bazasini kengaytirish imkoni yaratilgan;

talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish modeli irsiy xususiyatlar, tibbiy his tuyg'ularni rivojlantirish motivlari, bioenergetik bilimlarni yaxlitligi, variantivligi, dinamizmligi va ochiqligini integrativ moslashtirish hamda shaxsda moslashuvchanlik, faol yaratuvchanlik hissiyotlarini subekt-subekt munosabatlarining qayta aloqaga qirishish motivlariga proporsional bog'liqligini isbotlash asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-20170923121-

raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 1- dekabrda 02-07-3846/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning samaradorlik darajasini oshirish imkonini bergan;

talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish samaradorligi hissiyotlarni boshqarishga axloqiy qarashlar, hayotni voqeylikda bioenergetik bilimlardan foydalanish hamda fikrlash ketma-ketligini kriterial tashxis o’tkazish va diagnostik imkoniyatlariga intensiv transformatsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-20170923121-raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 1- dekabrda 02-07-3846/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilindi va ma’qullandi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo’yicha jami 10 ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o’rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti ta’riflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi tibbiy madaniyat tadqiqot predmeti sifatida taqdim qilingan; tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirishning mohiyati va tuzilmasi yoritilgan; oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodlari keltirilgan hamda talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirishning bioenergetik jarayonlar hamda inson ruhiyati bilan bioenergetika orasidagi bog’liqlik, hissiyotlarning bioenergetik jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning manbalari va metodik ta'minotini o'rganish natijasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar tahlil etildi.

Har bir fanni rivojlanish yo'li ma'lum bosqichda integratsiya jarayonini talab etadi. Ana shu bosqichda integratsiya ilmiy-tadqiqotlar doirasini kengaytirishga, yangi qonuniyatlarni, yangi yondashuvlarni vujudga kelishiga yordam beradi. Integratsion jarayon pedagogika fanini keyingi rivojini jadallashtirishga, ilmiy-tadqiqotlarning qamrovini oshirishga va yangidan-yangi kashfiyotlarni vujudga keltiradi.

Pedagogikada inson madaniyatining mazmuni quyidagilarga umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari, badiiy adabiyot, san'at (axloqiy mavzudagi) durdonalaridan ularga asoslangan holda tashkil etilishi hamda milliy madaniyat jarayonida ko'proq o'git-nasihatlardan, buyuk allomalar ibratidan yoki namuna ko'rsatish, o'rgatish, uqtirish, odatlantirish, rag'batlantirish, tartibga chaqirish metodlaridan foydalanishning samarali ekanligi aniqlangan.

Sharq mutaffakkur Abu Rayhon Beruniy "ruhiy jarayonlarni barcha hayvonlarga va odamlarga xos deb biladi". Ibn Sino kishi o'zini qanday tarzda pokiza tutishi lozimligi, nimalarga amal qilish kerakligi, odamlar bilan qanday muomalada bo'lish kabi masalalarni tahlil qiladi. A.Fitrat – tarbiyaning uch turi – badan tarbiyasi, fikriya tarbiyasi, axloqiy tarbiya haqida yozib, har birining ahamiyatiga alohida to'xtaydi.

Dissertatsiyada madaniyatning biologik jihatlarini ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan foydalangan holda o'rganish va tahlil qilish madaniyatning nafaqat ijtimoiy talab, balki, birinchi navbatda, biologik zarurat ekanini ilmiy asosda isbot etadi, tarbiyada mavjud bo'lgan ijtimoiy yondashuvni shaxsiy motivatsiyalar bilan boyitadi, odob-axloq haqidagi bilimlarimizni kengaytiradi hamda milliy madaniyat mazmunini boyitadi, madaniyat – har bir shaxsning biologik talabi ekanligini anglashga yordam berishi aniqlangan.


Madaniyatning biologik jihatlarini o'rganish talabalarda, tarbiya masalasiga nisbatan yangicha munosabatni uyg'otadi. Talabalar sog'lom hayot kechirish, ruhiy uyg'unlikka erishish uchun milliy madaniyat qoidalariga amal qilish hamda odob-axloq munosabatlarni o'rnatish zaruratini anglab yetadilar.

Madaniyatning biologik jihatlarini ruhiyatga oid bioenergetik bilimlar asosida tahlil qilish talabalarda tarbiya jarayonida yangi motivatsiyalarni uyg'otar ekan, tibbiy madaniyatni rivojlantirishda o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni bioenergetik bilimlar asosida tibbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirish uchun yuqorida aytib o'tilgan to'rt asosga beshinchi asosni, ya'ni tibbiy madaniyatning biologik jihatlarini tibbiy madaniyatning biologik jihatlarining tahlili shaxsiy xarakterdagi yondashuvni vujudga keltirish va odob, axloq, e'tiqod hamda hissiyotlarni tarbiyalash jarayonida yangi imkoniyatlarni yaratish doirasida kiritilgan (1-rasm).

Barcha sohalarida ro'y berayotgan tub islohotlar talabalarning bioenergetik bilimlar asosida tibbiy madaniyatini rivojlantirish darajasiga ham o'zining yangidan-

yangi talablarini qo‘ymoqda. Talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni mazmuni quydagicha belgilangan (1-rasm).



1.Расм. Talabalarini bioenergetik bilimlar asosida tibbiy madaniyatini rivojlantirish


Dissertatsiyada talabalarni bioenergetik bilimlar asosida tibbiy madaniyatini rivojlantirish amalga oshirish muammolarini hal qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar vijdoni oldida hisobot berish, ichki nazorat darajasini o‘rganish borasida quyidagi ma‘lumotlarni olishga yordam berdi: 45 foiz talabaning diqqati tashqi dunyoga yo‘naltirilgan. 15 foiz talabaning diqqat-e‘tibori yetarli darajada ichki dunyosiga yo‘naltirilgan emas. 40 foiz talabaning diqqat-e‘tibori yetarli darajada o‘z ichki dunyosiga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiyada talabalarni bioenergetik bilimlar asosida tibbiy madaniyatini rivojlantirish tibbiy madaniyat mazmunan boyitish hissiyotlarni va onglilikni tarbiyalashning yangi samarali usullarini ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan. Bioenergetik bilim o‘zida organizmning tashqi va ichki muhitidagi, inson ruhiyatidagi barcha axborotni mujassamlashtiradi. Demak, nafaqat tashqi muhitning ifloslanishi, balki ichki muhitning ifloslanishi, ruhiy uyg‘unlikning buzilishi bioenergetik bilimda o‘z aksini topadi.

Bioenergetik maydon aksion tuzilmalar orqali atrof-olamdagi boshqa energetik maydonlar bilan o‘zaro ta’sirlanadi. Bioenergetik maydon inson organizmi singari ochiq tizim bo‘lib, barcha jonli va jonsiz obyektlarning maydonlari bilan axborot almashinish xususiyatiga ega. Bu xususiyat insondan atrof-olamga, odamlarga, hayotiy jarayonlarga va o‘z shaxsiga nisbatan munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Bioenergetik bilim – inson ruhiyatini o‘zida aks ettiradi, ruhiyatning o‘zgarishi bioenergetik maydonda turli o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. Bioenergetik maydonni mustahkamlash, quvvatga to‘ldirish uchun inson o‘z ichki muhitida uyg‘unlikni o‘rnatishi lozim. Demak, bioenergetik bilim – alohida mustaqil jarayon bo‘lmasdan, balki inson ongiga va hissiyotlariga bog‘liq bo‘lgan jarayon. Bioenergetik bilim bilan tafakkur o‘rtasida, insonning fikrlash va his qilish qobiliyati bilan bioenergetik bilim o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud deb e‘tiroflash mumkin.

Bioenergetik bilim insonning ko'zgusi deb ataladi. Unda muvaffaqiyat va mag'lubiyat, muhabbat va adovat, sog'liq va kasallikni ko'rish mumkin. Inson bioenergetikasining tuzilishi va faoliyati tibbiy madaniyat qoidalariga amal qilishni talab etadi.



2-rasm. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlanish xususiyatlari

Talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayonida fikrlarni, bioenergetik ta'siriga ko'ra, quyidagi guruhlarga ajratdik: talabalarda birlashtiruvchi fikrlar; talabalarda ajratuvchi fikrlar; talabalarda konstruktiv fikrlar; talabalarda destruktiv fikrlar majmui sifatida qarash mumkin.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda tafakkur va fikr tarbiyasiga a'lohida e'tibor berilmog'i, talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; ijodiy fikrlashni rivojlantirish asosida.


Talabalarining his-tuyg'ularni ikki guruhga ajratish mumkin: ijobiy (axloqiy hissiyotlar), salbiy (agressiv hissiyotlar).


Ta'lim jarayonida talabalar hissiyotlarning organizmga ta'sir etishini o'rganilib, avvalo, ular taqqoslandi, salbiy hissiyotlarni tibbiy hissiyotlar orqali neytrallashtirish va ulardan to'g'ri foydalana olish yo'l-yo'riqlari aniqlandi.

Dissertatsiyada talabalarining tibbiy hissiyotlari – bioenergetik ruhiy uyg'unlikka erishish, salbiy hissiyotlarni neytrallashtirish, bioenergetik maydonni ijobiy quvvat bilan boyitish hamda tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda jismoniy va ma'naviy salomatlikni tarbiyalash jarayonlaridan iboratligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlanishini o'rganishning xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan; oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyati rivojlanganligini baholash mezonlari takomillashtirilgan; oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Mazkur bobda tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlanishini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari, tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlanishining xususiyatlarini ilmiy tekshirish metodlari tavsifi va tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik-psixologik xususiyatlarning namoyon bo'lishi kabilar o'z aksini topgan.





3-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetic bilimlar asosida rivojlantirish modeli

Talaba – bo'lajak tibbiyot xodimi shaxsining tibbiy madaniyatining asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatildi: shaxsning tibbiyot sohasiga yo'nalganligi; shaxsning tibbiyot xodimi kasbga tayyorligi; shaxsning tibbiy faoliyatidagi kasbga barqarorligi.

Biz taklif qilayotgan metodika tibbiyot mutaxassisligi bo'yicha har bir talabaning tibbiyot sohasiga yo'nalganligi va tibbiyot xodimi kasbini egallashga tayyorligini yuqori darajada obyektivlik bilan baholash, tibbiyot xodimining kasbiy ahamiyatli qirralarini aniqlash va uning kelgusi tibbiyot sohasidagi faoliyatdagi, muvaffaqiyatini prognozlash (bashorat qilish) imkonini beradi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida talabalarning tibbiy madaniyatini baholashning adekvat mezonlarini aniqlash uchun ekspert baholash o'tkazildi. Ekspert baholash obyektivligi (xolisligi)ni ta'minlash uchun ekspertlar sifatida Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Urgench davlat tibbiyot universiteti talabalari jalb qilindi.

Ekspert baholash protsedurasini o'tkazishni standartlashtirish uchun maxsus so'rovnoma ishlab chiqildi, uning asosini tadqiqotimizning birinchi bobi doirasida qilingan nazariy xulosalar bo'yicha shakllantirilgan tegishli qisqacha talqini bilan keltirilgan tavsiflar tashkil etdi. Shunday qilib, bo'lajak tibbiyot xodimlari tibbiy faoliyatining talabalarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish jihatidan o'ziga xosliklari tahlili tibbiyot oliy ta'lim tizimida bo'lajak tibbiyot xodimlarining kreativ salohiyati

ahamiyatli tarkibiy qismlarini (mezon) aniqlashga qaratilgan bir necha qisqa tavsiflarni shakllantirishimiz uchun imkon berdi.

Tadqiqotimiz doirasida tibbiy madaniyatni rivojlantirishning yo‘llari va usullari taqdim etildi, ular talabalarning tibbiy faoliyatning har xil turlarida faol ishtirok qilish, o‘zini o‘zi takomillashtirish tajribasini egallash, rolli va tashkiliy-faoliyatli o‘yinlarda ishtiroki, muammoni ko‘ra bilishi, shakllantirish va hal qilish yo‘llarini topish malakasini jalb etish orqali amalga oshirildi.

Tibbiy madaniyatni rivojlantirishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan asosiy tarkibiy qismlar taklif qilindi. Bular: 1-kurs – talabalarning moslashuv davri; “Bo‘lajak tibbiyot kasbiga kirish”, “Davolash ishi” maxsus fanlariga oid bilimlarni o‘zlashtirish; 2-kurs – passiv amaliyot o‘tash, bunda “Anatomiya va fiziologiya” fanidan egallangan bilimlar talabalar tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim jarayonini kuzatadi, talabalarning yoshga oid xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan profilaktik ishlar olib boriladi, davolash ishlari bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganish, “Tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlarida bo‘lajak tibbiyot xodimi kasbiga tayyorgarlik” talabalar tibbiy to‘garagi ishi, bunda bir necha mavzu va trening tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilari va rahbarlarining tibbiy madaniyatiga bag‘ishlanadi; 3-kurs – faol – ta‘lim tizining eng muhim bosqichi bo‘lgan malakaviy amaliyotni o‘tash. O‘qitishni malakaviy amaliyot bilan birlashtirish tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari faoliyatining asosiy prinsipi bo‘lib, amaliyotda vazifalarni hal qilish uchun maqbul sharoitlar yaratadi. Shuningdek, “Tibbiyot diyentologiyasi” fani bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish.

Taklif etilayotgan tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish modeli samaradorligini tajriba-sinovdan o‘tkazish quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi:

Tajriba-sinovning qayd qiluvchi bosqichida aniqlangan talabalarning tibbiy madaniyatining boshlang‘ich darajasi bilan bog‘liq muammolar tahlili tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish g‘oyasining dolzarbligini tasdiqladi.

Tajriba-sinovning nazorat bosqichi talabaning tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha loyihalashtirilgan natijalarga ishlab chiqilgan uning shakllanganlik darajasi mezonlariga muvofiq real erishish mumkinligi tasdiqladi.

Tajriba guruhlarida talabalarining tibbiy madaniyati shakllanganlik darajasida komponentlar bo‘yicha va yaxlitlikdagi jiddiy siljishlar haqidagi xulosalar ishonchli.

Natijalar taklif qilinayotgan tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish modelining dolzarbligi, amaliy ahamiyati va samaradorligini qayd etish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinovning tashkil qilinishi”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayonida tibbiy, biologik, ruhiy-bioenergetik bilimlardan unumli foydalanish an‘anaviy tarbiya metodlari bilan birga ilmiy tahlil usulidan keng foydalanish imkonini beradi.

Talabalarining o'z shaxsiga bo'lgan tibbiy madaniyatni bioenergetik qonuniyatlarga asoslangan bir necha yo'nalish belgilab olindi: talabalarda o'z shaxsiga nisbatan hurmat hissini rivojlantirish; o'z shaxsini yaxlit borliqning bir qismi sifatida qabul qilish; o'z shaxsiga rivojlanuvchi tizim sifatida qarash.

Talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda ichki kechinmalari, axloqiy qarashlari hayotiy voqeylikda qanday aks etishi sabab-oqibat hamda o'zaro bog'liqlik qonunlari asosida tahlil qilindi. Bunday tahlil talabalarda mas'uliyat va javobgarlik hissini tarbiyalashga yordam beradi.

Talabalarining tibbiy madaniyatining biologik jihatlarini ruhiy-bioenergetik bilimlar asosida o'rganish va tahlil etish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratdi: talabalarining tibbiy madaniyati haqidagi tasavvurlari kengaydi; talabalarining tibbiy madaniyati, nafaqat ijtimoiy talab, balki, birinchi navbatda, biologik ehtiyoj ekanini anglab yetdilar. Bu esa, talabalarining tibbiy madaniyatiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirdi; talabalar fikrlash jarayonida tibbiy madaniyat qoidalariga amal qilish zarur ekanligini angladilar va fikrlarni boshqarish usullari bilan tanishdilar; talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirishning yo'llari va his-tuyg'ularni boshqarish usullari bilan tanishdilar; talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida biologik, ruhiyatga oid bo'lgan bioenergetik bilimlardan foydalangan holda ilmiy tahlil metodi qo'llanildi.

Talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish haqidagi bilimlari quyidagi mezonlar asosida tahlil etildi:

Yuqori daraja – talaba tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar haqidagi tushuncha va tasavvurlarga ega, qoida hamda meyorlar zaruratining ijtimoiy va biologik jihatlarini ilmiy asosida tahlil eta oladi, fikrlash madaniyati va hissiyotlarni rivojlantirish usullarini biladi.

O'rta daraja – talaba tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar haqidagi tushuncha va tasavvurlarga ega, qoida va meyorlar zaruratining ijtimoiy va biologik jihatlarini qisman tahlil eta oladi, fikrlash madaniyati va hissiyotlarini rivojlantirish usullari bilan tanish emas, o'z ustida ishlashga tayyor emas.

Quyi daraja – talaba tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar haqidagi tasavvurga ega, qoida va meyorlarning faqat ijtimoiy jihatlarini qisman tahlil etadi, fikrlash madaniyati hamda hissiyotlarini rivojlantirish usullari bilan tanish emas.

Qoniqarsiz daraja – talaba tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar haqidagi tasavvurlari sust, qoida va meyorlarning ijtimoiy va biologik jihatlarini tahlil eta olmaydi, fikrlash madaniyati va hissiyotlarni rivojlantirish usullari bilan tanish emas.

Tajriba-sinov maydonchalarida o'tkazilgan qayd qiluvchi kesimlarga Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Urgench davlat tibbiyot universitetining Davolash fakulteti talabalari jalb qilindi. Keyin 1-kurs talabalarining tibbiy madaniyati rivojlanganlik darajasini aniqlash asosida ular nazorat va tajriba guruhlariga tanlab olindi.

Talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan suhbatlar, testlar va nazorat ishlari shuni ko'rsatdiki, ular axloqiy onglilikning asl mohiyatini evolyutsion qonuniyatlarni, biologik va bioenergetik qonuniyatlarni bilan bog'lashga qiynaladilar. Buning natijasida Talabalar

tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayoni tor ma'noda tushunadilar.

Talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda biologik jihatlarini ruhiy-bioenergetik bilimlar asosida o'rganish va tahlil etish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratdi; talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda dunyoqarashi, ongi, tasavvurlari kengaydi ; talabalarning tibbiy madaniyati - nafaqat ijtimoiy talab, balki birinchi navbatda biologik ehtiyoj ekanini anglab yetdilar. Bu esa talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirdi ; Talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda tibbiy faoliyati jarayonida odob - axloq qoidalariga amal qilish zarur ekanligini angladilar va o'zini boshqarish usullari bilan tanishdilar ; talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda o'zining his-tuyg'ularni rivojlantirishning yo'llari va his-tuyg'ularni boshqarish usullari bilan tanishdilar ; talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayonida biologik, ruhiyatga oid bo'lgan bioenergetik bilimlardan foydalangan holda ilmiy tahlil metodi qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida nazorat va tajriba guruhi talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish va ularning odob –ahloqi, dunyoqarashi, bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish ko'lamini tekshirib borildi.

O'tkazilgan tajriba jarayonida bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish talabalarning tibbiy madaniyatini yanada mukamallashtirdi, axloqiy onglilik va axloqiy hissiyotlar tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Tadqiqotdan oldin talabalar - talaba tibbiy madaniyati, axloqiylikning inson bioenergetik maydoniga, ruhiyatiga, sog'lig'iga ta'siri, fikrlash axloqining ahamiyati, axloqiylikning biologik jihatlarini haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan bo'lsalar, tadqiqotdan so'ng talabalarning ko'pchiligi ruhiy uyg'unlik, bioenergetik maydon va axloqiylik orasidagi bog'liqliklarning mavjudligini, axloqiylik har bir shaxsning biologik zarurati ekanligini anglab yetdilar. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan foydalangan holda odob – axloq nafaqat ijtimoiy talab, balki shaxsiy biologik zarurat ekanligi ilmiy dalillar asosida aniqlandi.

Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirish darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijaviyligi statistik metodlar orqali tahlil qilinib, ularning samaradorligi 1.15 barobarga oshganligi aniqlandi (1-rasm). Jadvallar va diagrammadan samaradorlik ko'rsatkichi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 1,14 barobardan 1,15 barobarga (14 foizdan 15 foizgacha) yuqori ekanligi ko'rinib turibdi. Bu esa, yuqorida qilingan xulosamiz to'g'ri ekanligini isbotlandi.

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlari davomida tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarining tibbiy madaniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish tibbiyot tizimi sinaldi va uning mazkur madaniyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan samarali ekani asoslab berildi.

XULOSA

1. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati hamda mohiyati o'rganildi, bunda talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish mazmunini tashkil etadi. Talabalarning tibbiy madaniyatning shakllanganlik darajasini belgilashda nafaqat shaxs xususiyatlari, balki faoliyatning rivojlanish xususiyatlarini ham hisobga olish muhimligi aniqlangan.

2. Dissertatsion tadqiqotda "tibbiy madaniyat" tushunchasining mazmuni aksiologik, motivatsion, kognitiv, faoliyatli, ijodiy, shaxsiy va hissiy-baholash komponentlaridan iboratligi aniqlangan.

3. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning mezonlari va tibbiy shart-sharoitlarining obyektiv va subyektiv omillari rivojlantirilgan.

4. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish texnologiyasi va pedagogik jarayonlari majmuaviylik, uzviylik, qo'shimchalik, fanlararo o'zaro hamkorlik va o'zaro almashinuv uchun va o'zgarishlar uchun ochiqlik, yaxlit, variativ, dinamik, ochiq tizim sifatida qarash imkoni aniqlangan.

5. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishda muvaffaqiyatlilikka ta'lim jarayoni, treninglar, seminarlar va o'qitishning boshqa metodlari, keyinchalik tibbiy faoliyat mazmunini tahlil va to'g'rilash bilan doimiy o'tkaziladigan mashg'ulotlar talabalarning tibbiy madaniyat darajasi aniqlangan.

6. Tadqiqot ishlari jarayonida talabalar – bo'lajak tibbiyot xodimlarining tibbiy madaniyatini zamonaviy sharoitlarda tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, umumilmiy va umumnazariy fanlarni o'qitish vositalarining professionalizmi yuqori darajasini shakllantirish omillari vositasida rivojlantirish bo'yicha metodik ishlar, uni shakllantirish yo'llarini o'rganish yo'nalishida davom ettirilishi aniqlangan.

7. Talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayonida hissiyotlarning inson hayotidagi o'rni, inson organizmiga ta'siri va ularni boshqarish usullari haqida batafsil fikr yuritish lozim. Chunki, tibbiy madaniyatining ichki asoslaridan biri hissiyotlardir va ularning inson hayotidagi o'rni beqiyos. Talabalarning tibbiy madaniyatini shakllantirishda hissiyotlar tarbiyasi bilan shug'ullanmay turib, ichki uyg'unlikka erishish va barkamol shaxsni tarbiyalash mushkuligi aniqlangan.

8. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tibbiy madaniyatini rivojlantirishda bugungi kun ularning his-tuyg'ulari qanday tendensiya kasb etayotganligini, hislarining chuqurligini aniqlash uchun diagnostika ishlarini tashkil etish, diagnostika natijalaridan kelib chiqqan holda hissiyotlarni rivojlantirish rejalarini tuzish, hissiyotlarni tarbiyalashda ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan unumli foydalanish usullari ko'rsatilgan.

TAVSIYALAR

1. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish.
2. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish.
3. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning modelini takomillashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

ХАЙДАРОВА МАХЛИЁ МАМАТОВНА

**РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ
НА ОСНОВЕ БИОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2022.1.PhD/Ped3053.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.tdpu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Абдазимов Азизжон Абдусобирович доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент
Официальные оппоненты:	Хакимова Мухаббат Файзиевна доктор педагогических наук, профессор Туракулов Уктамжон Нурмаматович доктор медицинских наук, профессор
Ведущая организация:	Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в _____ часов на заседании научного совета DSs.03/30.01.2021.Ped.26.01 при Ташкентском государственном педагогическом университете (адрес: 100011, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунедкор, дом 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирован за номером _____). Адрес: 100011, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунедкор, дом 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 г.
(Реестр протокола рассылки за № _____ от « ____ » _____ 2025 г.)

З.Н.Мамаражабова
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор
Р.Г.Исянов
Научный секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.п.н., доцент
М.Е.Мамаражабов
председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировых медицинских образовательных организациях внедряются в практику непрерывного образования модели терапевтического воздействия на развитие медицинской культуры и профессиональных компетенций на основе биоэнергетических знаний и умений. В соответствии с Целями устойчивого развития, разработанными Генеральной Ассамблеей ООН в 2015 году, ведется системная работа по внедрению в практику крупных научных проектов по синтезу биоэнергетических знаний о медицинской культуре и психике будущих медицинских специалистов, обеспечению гармонии здорового образа жизни и медицинской культуры.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся научные исследования по формированию медицинской культуры студентов, профессионального мышления и рефлексии, влиянию биоэнергетических знаний на профессиональную деятельность – расширению возможностей развития медицинской культуры в биоэнергетике и биофизике, повышению эффективности медицинских эмоций и мышления. В медицинских высших учебных заведениях Германии, России, Франции, Южной Кореи, США и Японии уделяется особое внимание научным исследованиям по освещению биологических аспектов медицинской культуры биологии психики, развитию чувств сознания студентов на основе биоэнергетических знаний.

Осуществляемые в последние годы в республике реформы, касающиеся образования и воспитания молодежи, создаются нормативные-правовые основы воспитания высококвалифицированных специалистов, молодых людей с высокой интеллектуальной, духовно-нравственной культурой, ответственных за будущее нашей страны. «Каждый ребенок – будущее нации. Воспитание наших детей здоровыми, как физически, так и духовно, воспитание гармоничного поколения, их счастье, благополучное будущее – это заветная мечта всех нас,» 1. В результате, расширятся педагогические возможности развития медицинской культуры студентов на основе биоэнергетических знаний.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года, № УП-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года, № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране комплексных реформах” от 5 июня 2018 года, № ПП-3151 “О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и отраслей экономики в повышении качества

подготовки специалистов с высшим образованием” от 27 июля 2017 года и других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и техники республики. Данная научно-исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Педагогические и психологические аспекты развития профессиональной и медицинской культуры студентов исследовали Б.С.Абдуллаева, А.Азизходжаев, М.Л.Арипова, А.Р.Арипджанова, У.Ш.Бегимкулов, Н.Бобоев, Н.Н.Джамилова, Р.Х.Джураев, З.Исламов, Р.Г.Исянов, М.Иномова, Н.У.Махкамов, Г.И.Махмутова, О.Мусурмонова, С.Мишонова, Х.Одилкориев, Д.Рузиева, У.К.Толипов, М.Куранов,

